

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiy ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lim-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romanchilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



UO'K: 81'322:004.85

PARALLEL KORPUSDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNI LINGVISTIK TEGGLASH
MASALASIПРОБЛЕМА ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ РАЗМЕТКИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В
ПАРАЛЛЕЛЬНОМ КОРПУСЕTHE PROBLEM OF LINGUISTIC TAGGING OF LINGUISTIC UNITS IN A PARALLEL
CORPUSNilufar Abduraxmonova¹ ¹O'zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.d., professorAybibi Iskandarova² ²O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya

Maqolada Chingiz Aytmatovning "Плаха" romanining o'zbek tiliga tarjimasida metafora usuli bilan qayta yaratilgan lingvomadaniy birliklarning parallel korpusda xoslanish holatlari tahlil qilinadi. Tahlilga tortilgan lingvomadaniy birliklar turkiy tillar bo'yicha teglash tizimi asosida annotatsiyalanadi. Maqolada asliyat tilidan maqsad tiliga o'g'irish jarayonida paydo bo'ladigan gap konstruksiyalaridagi farqlar SmartCat texnologiyasi asosida jadvalda ko'rsatilgan. Shuningdek, tarjimadagi muqobil va muqobil bo'lmagan turg'un birikmalarning tarkibi haqida fikr bildiriladi.

Аннотация

В статье при переводе романа Чингиза Айтматова «Плаха» на узбекский язык в параллельном корпусе анализируются лингвокультурные единицы, воссозданные методом метафоры. Анализируемые лингвокультурные единицы аннотируются на основе системы тегов турецкого языка. В статье различия в конструкциях предложений, возникающие в процессе конвертации с исходного языка на целевой, показаны в таблице на основе технологии SmartCat. Также в переводе высказано мнение о составе альтернативных и безальтернативных устойчивых соединений.

Abstract

In the article, in the translation of Chingiz Aitmatov's novel "Plakha" into Uzbek, the linguistic and cultural units recreated by the metaphor method are analyzed in a parallel corpus. The analyzed linguistic and cultural units are annotated based on the Turkish language tagging system. In the article, the differences in sentence constructions that appear in the process of converting from the source language to the target language are shown in a table based on SmartCat technology. Also, an opinion is expressed about the composition of alternative and non-alternative stable compounds in the translation.

Kalit so'zlar: parallel korpus, metafora, muqobil va muqobil bo'lmagan frazemalar, lingvomadaniy birlik, xoslanish, teglash, SmartCat texnologiyasi.

Ключевые слова: параллельный корпус, метафора, альтернативные и безальтернативные фразеологизмы, лингвокультурное единство, идентификация, маркировка, технология SmartCat.

Key words: parallel corpus, metaphor, alternative and non-alternative idioms, linguistic and cultural unity, identification, tagging, SmartCat technology.

KIRISH

Bugungi kunda olimlarimizning sa'y-harakatlari bilan o'zbek milliy korpusi konseptologik va strukturaviy jihatdan mukammallashtirilib borilmoqda. Matnlarni morfologik va sintaktik teglash va tahlil qilishning FST va UdPipe kabi avtomatik usullari orqali lisoniy modellar mashina tiliga o'tkazilmoqda. O'zbek-ingliz va o'zbek-rus parallel korpusida rasmiy, ilmiy, badiiy, publitsistik uslubning turli janrlariga tegishli materiallar jamlangan bo'lib, lemma va tokenlarni tahlil qilishning lingvistik va dasturiy ta'minoti yaratilgan [1.10].

Rus-o'zbek milliy parallel korpusida tarjima birliklarining lingvomadaniy xoslanishi jiddiy tadqiqotlar olib borilishi kerak bo'lgan yo'nalishlardan biri. Chunki har bir tilning o'ziga xos lisoniy modellari tarjima birliklarida namoyon bo'lib, milliy tilimizni xorijiy talabalarga o'rgatishda, uning

barhayotligini ta'minlashda, ikki va ko'p tilli lug'atlar yaratishda parallel korpuslarning ahamiyati kattadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Parallell matnlar asosida korpus yaratishda, avvalo, ikki tilning mos matn fragmentlari: frazeologik birliklar, paremiyalar, nutq klishe'lari, murakkab sintaktik birliklar, lingvomadaniy birliklar o'zaro juftlanadi. Keyin ishlab chiqilgan metodlar yordamida, mashina tiliga o'tkaziladi.

V.P.Zaxarov, S.Y.Bogdanovanning "Korpus lingvistikasi" darsligida parallel korpusda matnlarni moslashtirishning farqli ko'rinishlari sodir bo'lishi qayd etilgan: "V.Zubov va I.I.Zubovalarning darsligida gaplar darajasida gaplarning muqobilligini aniqlash bo'yicha fikrlar o'rta tashlangan. Ushbu moslashtirish olti usulda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) asliyatdagi bir matn ikkinchi tilga aynan hajmda tarjima qilinishi;
- 2) asliyatdagi ikki matn ikkinchi tilga bir matn bo'lib tarjima qilinishi;
- 3) asliyatdagi bir matn ikkinchi tilga ikkita matn sifatida tarjima qilinishi;
- 4) asliyatdagi ikki gap ikkinchi tilga ham ikkita jumla tarzida tarjima qilinishi;
- 5) asliyatdagi jumla ikkinchi tilga umuman tarjima qilinmasligi;
- 6) asliyatdagi matnning tarjima qilinadigan tilda mos ekvivalentining mavjud emasligi [2.20].

O'zbek tili turkiy til oilasiga, rus tili Hind-Yevropa til oilasining slavyan turkumiga mansub bo'lib, bu ularning konstruksiyalaridagi quyidagi farqlarda ko'rinadi: masalan, o'zbek matnlarida ikkinchi darajali bo'laklar bevosita yoki bilvosita kesimga tobelanadi, kesim hukmni ifodalaydi va gapning oxirida joylashadi. Rus tilida aksar hollarda, kesim egadan keyin, ikkinchi darajali bo'laklar esa kesimdan keyin: ega+hol+kesim+aniqlovchi+to'ldiruvchi shaklida ham joylashadi. Rus-o'zbek tilidagi bunday farqliklar parallel korpusda til birliklarining teglashda ham ko'rinadi.

Professor G'.Salomov tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligini ta'kidlaydi: "Tarjima qilish uchun so'zning muayyan lug'aviy ma'nolarini bilishning o'zigina kifoya qilmaydi. Buning uchun so'zning ayni shu kontekst ichidagi sifati, eskirganlik, yangilik, majozilik, hurmatlash, e'zozlash, pardalash, piching, g'azab, haqorat va hokazo ma'nolarini bilmoq, so'ngra o'zbek tilidan o'sha ko'rsatkichga muvofiq keladiganini topa olmoq kerak. Buning uchun esa tilni faqat "bilish" gina emas, uni tuyish, his qila olish lozim" [3.94].

Tadqiqotimizda parallel korpusdagi lingvistik instrumentlardan Paraconc texnologiyasidan foydalanamiz: Paraconc texnologiyasi bilingval va ko'p tilli dastur bo'lib, quyidagi imkoniyatlarga ega:

1. Turli usullarda so'zlarni saralash va hisoblash;
2. Tarjima qilingan parallel matnlarni moslashtirish;
3. Matndagi mavjud birliklarni oson topish va ularni ko'rsatish;
- 1) terminlarni qidirish;
- 2) tarjima ekvivalentlarini aniqlash;
- 3) tarjimalardagi muhim o'rinlarni aniqlash;
- 4) so'z birikmasi sifatida so'zlar o'ramini tahlil qilish;
- 5) so'zlar chastotasi [4.309].

TAHLIL VA NATIJALAR

I. G'afurov "Qiyomat" romani tarjimasida matn semantikasiga mos holatda *qismat*, *azaldan azal*, *qamg'oq*, *andak*, *ajabmaski*, *qish oyoqlaganda*, *mahtal turmoq*, *serka*, *amriga muntazir*, *ahvoli chatoq*, *talotum*, *jindak* kabi milliy konseptlardan o'rinli foydalangan.

Asliyat va maqsad tilidagi parallel matnlar strukturasiidagi farqlarni SmartCat texnologiyasi orqali quyidagicha ko'rsatamiz:

Ведь все мечты так: вначале рождаются в воображении, а затем по большей части терпят крушение за то, что посмели произрастать без корней, как иные цветы и деревья...	Ахир, ҳаёл деган нарсанинг ўзи бошида кўнгил мулкида шундай ҳаволаниб пайдо бўлди-ю, сўнг кўпинча илдиз отмай япроқ ёзгани учун муқаррар талафотга юз тутди. Худди баъзи гуллар ва дарахтлар каби... Қуруқ ҳавойи ҳаёлнинг қисмати бошқа нима ҳам бўларди
---	--

TILSHUNOSLIK

Kompyuter dasturi uchun parallel matnlar tanlanganda asl holicha, ya'ni manba qaysi alifboda yozilgan bo'lsa, shu holicha milliy korpusga joylanadi. Tadqiqotda parallel korpus uchun "Plaxa"ning 1987-yilgi Alma-Ata kirill alifbosidagi nashridan, o'zbekchadagi muqobil misollari uchun "Qiyomat"ning 1989-yilgi Toshkent nashridan foydalanildi.

Tarjimada:

Ведь все мечты так: вначале рождаются в воображении – Axir xayol degan narsaning o'zi boshida ko'ngil mulkida shunday havolanib paydo bo'ladi-yu,

а затем по большей части терпят крушение за то, что посмели произрастать без корней - so'ng ko'pincha ildiz otmay yaproq yozgani uchun muqarrar talafotga yuz tutadi shaklida o'g'irilgan.

Asliyat tilidagi murakkab qo'shma gap: bitta bog'lovchisiz qo'shma gap, ikkita sodda gap shaklida tarjima qilingan. Ikkinchi sodda gap asliyat semantikasi va pragmatikasini anglagan holda tarjimon tomonidan quyidagicha berilgan: "Quruq havoyi xayolning qismati boshqa nima ham bo'lardi".

"Tarjima asliyat tili matnini tarjima tili matnidagi eng yaxshi ekvivalenti bilan almashtirishga mo'ljallangan o'g'irish jarayonidir va bunda tarjima tili sintaksisi, semantikasi, pragmatikasini tushunish va jarayonni tahlil qilish talab qilinadi"[5.35].

Xorijiy olimlarning fikriga ko'ra, "tarjima metodi ikki turga bo'linadi. Birinchisi – shaklga asoslangan yoki so'zma-so'z tarjima metodi. Ikkinchisi – ma'noga asoslangan yoki idiomatik tarjima metodi. So'zma-so'z tarjima deganda, u tarjimada asliyat tili shaklini o'zgartirmaslikni nazarda tutadi. Idiomatik tarjimada asliyat tili yozuvchisi nazarda tutgan ma'noni tarjima tiliga olib o'tish maqsad qilinadi"[5.37].

I.G'afurov tarjima jarayonida "asliyat tili yozuvchisi nazarda tutgan ma'noni tarjima tiliga olib o'tishni maqsad qiladi", matn semantikasi va pragmatikasini yorqin, ta'sirchanroq ifodalash uchun asliyatda muqobili yo'q, lekin tarjimada mavjud gaplarni ham yaratadi.

Romandan olingan quyidagi mikromatnda "bo'yi yetmoq", "umidvor oshiqqlar", "eh-he", "uni deb bir-birlariga qiron solmoq" konseptlari orqali milliy tilimizning o'ziga xos ohangi va jozibasi berilgan.

То подрастал предмет раздора и смертельных схваток среди самцов, едва придет ее любовная пора	Хали унинг бўйи етсин, эҳ-хэ, не-не умидвор ошиқлар уни деб бир-бирларига қирон соладилар...
---	--

"Qiyomat" tarjimasida metafora usuli bilan yaratilgan lingvomadaniy birliklar mavjud bo'lib, ularni parallel korpusda quyidagicha morfologik tegglaymiz.

Metafora:

трагическая /ADJ/ необходимость /Noun/	achchiq /ADJ/ zarurat /Noun/
высоко /ADV/ и /Conj/ звонко / ADV /	baland /ADV/ ovoza solib /V/ bormoq /V/
пролетали /V/	
белым /ADJ/пятном /Noun/ в /Abl/ паху /Noun/	chovida/Noun/ oq /ADJ/ yamog'i/Noun/
в /Abl/ тумане /Noun/ легком/ADJ/	harir /ADJ / tumanlar /Noun/ichra/POST/;

Har bir xalqning antroponimlari ham ma'lum ma'noda, o'sha xalqning lingvomadaniy birliklari sanaladi. Chunki bu nomlarda xalqning orzu-umidlari dunyoqarashi aks etadi. Romandagi bo'rilarining nomlari belgi va harakat o'xshashligi asosida o'g'irilgan sodda metaforalar bo'lib, bu lingvomadaniy birliklar parallel korpusda quyidagicha morfologik teglanadi:

Большеголовый / Noun / – Xumkalla / Noun /;

Быстроногим / Noun / – Ildam / Noun /;

Любимицей / Noun / – Suygunoy / Noun /.

Asar tarjimasida muqobil va muqobil bo'lmagan lingvomadaniy birliklar va frazemalar bor. Bu rus-o'zbek tillarining o'ziga xos lisoniy modellari bilan bog'liq hodisa sanaladi. Muqobil lingvomadaniy birliklar sifatida quyidagilar teglandi:

Пройдет/V/еще/ADV/немного/ADV/времени/Noun/–yana/ADVjindak/ADV/ vaqt /Noun/ o'tsin /V/;

как /ADV/ знаки /Noun /силы /Noun /u/Conj/ сплоченной /ADJ /воли/ Noun/ – xuddi /Part/ yagona /ADJ/ kuch /Noun / va /Conj/ iroda /Noun/ ramziday /ADJ/

Tarjimada quyidagi muqobil frazemalar mavjud:

Хоть из под земли – yerning tagida bo'lsa ham;

От нетерпения – toqatlari toq;

Рассчитывать на успех – ovi baroridan kelmoq;

Насколько хватало глаз – ko'z ilg'agulik yengil;

Tarkibi jihatidan farqlanadigan frazemalarni quyidagi chizmada ko'rsatamiz:

Но каждой твари свой рай предопределен

Biroq har maxluqning **pehonasiga** o'z jannati yozib qo'yilgan.

Потерявшей всякий контроль над собой

Boshvog'ini yo'qotgan, o'zini mutlaqo idora qilolmay qolgan;

И все теперь зависело от них самих **и** от удачи...

Endi hammasi ularning o'zlariga bog'liq, omadlariga havola...

Раз Богом не определено

Xudoning o'zi buyurmagandan keyin, **yo'rig'idan chiqib qayoqqa ham boradi.**

XULOSA

Rus-o'zbek tillari parallel korpusining lingvistik ta'minoti mazkur tillardagi lingvomadaniy birliklar, frazemalar fondini jamlash, qiyoslash, tarjima qilish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish, konseptlar va frazemalar tarkibidagi arxaik so'zlarning ma'nolariga aniqlik kiritish, etimologik tahlillarni amalga oshirish, rus-o'zbek tarjimashunosligini takomillashtirish, avtomatik tarjima imkoniyatlarini kengaytirish, rus-o'zbek xalqi lisoniy ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy-madaniy muhitdagi umumiy va xos belgilarni aniqlash, mazkur tillarning umumtaraqqiyot bosqichiga xos tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonova N. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya). –Toshkent, 2021. – 202 b.
2. В.П. Захаров, С.Ю. Богданова Корпусная лингвистика. Учебник. – Санкт-Петербург 2013, –161 с.
3. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш (o'quv qo'llanma). Тошкент, 1978. – 219 б.
4. Abduraxmonova N. Korpus lingvistikasi (darslik). –Toshkent, 2024.–320 b.
5. Йўлдошев У. Бадиий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (монография). –Самарқанд, 2022. – 170 б.
6. Айтматов Ч. Плаха. Алма-Ата, 1987. – 302 б.
7. Айтматов Ч. Қиёмат. – Тошкент, 1989. – 334 б.